



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY
BANKIDA KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHISH BO'YICHA OLIB BORILAYOTGAN
FAOLIYAT NATIJALARI**

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ICHKI IDORAVIY HUJJATLARNING ISHLAB CHIQILGANLIGI VA O'Z VAQTIDA YANGILAB BORILISHI



Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ichki normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish maqsadida tasdiqlangan ichki hujjatlar soni

12

- Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati
- Odob-ahloq qoidalari
- Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti
- Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom
- Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti
- Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnomalarini o'tkazish to'g'risidagi nizom
- Kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomalarini o'tkazish to'g'risidagi nizom
- Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnomalarini o'tkazish to'g'risidagi nizom
- Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti
- Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holari haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti
- Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha reglamenti
- Davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ICHKI IDORAVIY MEXANIZMLARNING JORIY ETILGANLIGI



Markaziy bank tizimi xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harkatlari haqida xabar berishga mo'ljallangan **4 ta aloqa kanallari** ishga tushirilgan.



cbu.anticor@cbu.uz



https://t.me/Cbanticor_bot



cbu.uz/oz/anti-corruption/send/



(998 71) 200-00-44



Hisobot davrida markaziy bank tizimi xodimlaridan korrupsiyaga oid huquqbarliklar to'g'risida xabarlar kelib tushmagan.

KADRLARGA OID MASALALARDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZMINING JORIY ETILISHI



Vakant lavozimlarga munosib nomzodlarni tanlab olishda ochiqlik tamoyili qo'llanilgan. Bunda:

- Vakant lavozimlar haqida **ma'lumotlar** rasmiy veb-saytda va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi;
- **Hujjatlarni qabul qilish** va dastlabki **test sinovlarini** topshirishning onlayn tizimi ishlab chiqilgan;



Dastlabki bosqichdan o'tgan nomzodlar bilan **suhbat** o'tkazish uchun Ekspert guruhi tuziladi va suhbat jarayoni YouTube orqali **jonli efirga** uzatiladi.



Tizimda ishlovchi barcha xodimlarning mehnat shartnomalariga **korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha shartlar** kiritilgan hamda tanishganligi imzosi bilan tasdiqlangan.

MARKAZIY BANK TIZIMIDA ISHGA QABUL QILISHDA NOMZODLARNI HAMDA XARID JARAYONLARIDA KONTRAGENTLARNI O'RGANISH ISHLARI



2023-yilda Markaziy bankka **6 291 nafar** nomzodlar hujjat topshirgan bo'lib, **93 nafar** xodim ishga qabul qilingan, ular bo'yicha komplaens-nazorat xizmati tomonidan o'rganishlar o'tkazilgan va tegishli xulosalar berilgan.



Tender, tanlov va to'g'ridan-to'g'ri xaridlarini amalga oshirishda ishtirokchilarda affillanganlik, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa korrupsiyaviy xatarlarni oldini olishga qaratilgan **155 ta** kontragentlar yuzasidan o'rganishlar o'tkazilib, **tegishli xulosalar berilgan**.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN MONITORING HAMDA TARG'IBOT TADBIRLARI




Markaziy bankning barcha hududiy bosh boshqarmalar hamda tasarrufdagi korxonalarda korrupsiyaga qarshish kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati joyiga chiqqan holda o'rganildi.



O'rganishlar davomida o'quv-seminarlar tashkil etildi hamda xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tanishib chiqqanlik darajasini aniqlash maqsadida **test sinovlari**, profilaktik suhbatlar, anonim so'rovlar o'tkazildi.



Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid bosma **ko'rgazmali materiallar** va **qo'llanmalar** barcha hududiy bosh boshqarmalar hamda markaziy apparat tarkibiy bo'linmalariga yetkazildi.




MARKAZIY BANK TIZIMIDA MANFAATLAR TO'QNASHUVI BO'YICHA BELGILANGAN TARTIBGA RIOYA ETILISHINI TA'MINLASH



Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va boshqarish to'g'risida Nizom talablariga asosan tizimda faoliyat yuritayotgan barcha xodimlardan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha yillik deklaratsiyalar olingan.

- Deklaratsiyalar tahlil qilingan va Markaziy bankning umumlashtirilgan **manfaatlar to'qnashuvi reyestri** shakllantirilgan.
- Aniqlangan **potensial** manfaatlar to'qnashuvining real manfaatlar to'qnashuviga aylanishini **oldini olish bo'yicha choralar belgilangan**.
- Shu bilan birga, bo'sh ish o'rirlarga nomzodlarni ishga qabul qilish (lavozimga tayinlash)da manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida ma'lumotlar o'rganilishi yo'lga qo'yilgan.



KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI ANIQLASH, BAHOLASH



Markaziy bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyotiga muvofiq Markaziy bankka yuklatilgan barcha vazifalar bo'yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlar tahlil qilindi.



Markaziy bankda birlashgan korrupsiyaviy **xavf-xatarlar xaritasi** ishlab chiqilib, xavf-xatarlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.



Markaziy bank faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni umuman olganda "past" darajada baholanishi Markaziy bank tomonidan aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga bevosita bank-moliya xizmatlari ko'ssatilmasligi hamda xaridlarni amalga oshirish, ishga qabul qilish va Markaziy bankning nazoratga doir funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha qarorlarning kollegial tartibda qabul qilinishi, faoliyatning to'liq normativ-huquqiy xujjalalar bilan tartibga solinganligi va ish jarayonlarini avtomatlashtirish choralarini ko'rilganligi bilan izohlanadi.





MARKAZIY BANK RAHBARIYATINING KORRUPSIYAGA QARSHI MUROSASIZ MUNOSABATINI KO'RSATUVCHI XATTI-HARAKATLARNING MAVJUDLIGI



Замфурхонов учун
Форум Виртуал кабулона Биз бетин болганини
Ваколат курслари O'zbekcha Ўзбекча на русском en English

Министри финансийи Узбекистон Республикаси
Марказий банки

Банк кредит сидаси Молиявий баърхоглиг
Тўлов тасимлари Кредит таъсислари

СТАТИСТИКА БАНКСУНЧИЧЛЯГИ

Министри финансийи Узбекистон Республикаси
Алоқателек ризасати (+998 71) 212-62-05 (+998 71) 200-00-44
Избор телефони

Министри финансийи Узбекистон Республикаси
Коррупцияга қарши курашиш

Баш сафифа / Коррупцияга қарши курашиш 10785

Информация салми: 29 Июн 2024, 18:57

Коррупцияга қарши курашиш

Узбекистон Республикаси Марказий банки раиси
Мамаджо Бердимуратович Нурмухатовинг
коррупцияга қарши курашиш бўйича
МУРОЖААТИ

Коррупцияга қарши бўйича маънавийтли билан курашманини зарур

Узбекистон Республикаси Президентини
Шахот МИРЗИЕЕВ

Тараққиетнинг янги босичада Узбекистон учун коррупциянинг хар кандай шаклдан кўринини ислокоттар шиддатни ва самарасин сусайтири мумин болган ишлат хисобланади.

Дарёйиц, давлатни раббаримиз 2022 йил 20 деҳабдари Олий Мажлиси ва Узбекистон халоға муроҷаотномасида "Коррупцияга қарши курашиш ахолининг барча каттамларига, янг яши мутахассислар

Валюта курслари
01.05.2024

Валюта	Курс	Изменение
USD	12015.17	+0.84
EUR	13526.93	+4.39
RUB	135.24	-0.35
GBP	15180.20	+0.55
JPY	80.36	-0.47
CHE	13836.04	+0.58
CNY	=	

Отправить нам сабаблени

Markaziy banki raisining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaati Markaziy bank rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan hamda "Korrupsiya - illat, unga qarshi kurashish esa katta mas'uliyat" mavzusida maqolasi "Yangi O'zbekiston" gazetasida chop etilgan.

XODIMLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH YUZASIDAN O'TKAZILGAN TADBIRLAR



Markaziy bank tizimi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil etish bo'yicha **yillik dasturi** ishlab chiqilib tasdiqlangan.



Markaziy bank tizimi barcha xodimlari uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda **davra suhbatি, ma'ruza va seminarlar** tashkil etildi.



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA XORIJUY TAJRIBANI O'RGANISH

Komplaens-nazorat faoliyatiga mas'ul xodimlarining **Gruziya, Turkiya, Qozog'iston** davlatlariga tashrifi tashkil etilib, mazkur davlatlarning korrupsiyaga qarshi komplaens-nazorat sohasidagi tajribasi o'rganildi hamda o'rganish natijalari asosida takliflar ishlab chiqildi.



LEGAL
Подход МВФ к управлению и противодействию коррупции
Г. АСТАНА, КАЗАХСТАН
16-19 ОКТЯБРЯ 2023 Г.
Себастиян Помпе
Юридический департамент МВФ

'Training of specialists demanded all over the world!'



Komplaens-nazorat faoliyatiga mas'ul xodimlar ISO-37001 xalqaro standarti talablari asosida maxsus o'quv kurslarida ishtirok etishdi va tegishli sertifikatlar olindi.